

“NKMK” AJda 2026-yil 1-chorakda aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari va ularni bartaraf etish uchun amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha

MA’LUMOT

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuniga, shuningdek “NKMK” AJ Kuzatuv Kengashining 2024-yil 7-iyundagi 4-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo‘linmalarida manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibiga solish to‘g‘risida”gi Nizomga asosan Komplaens xizmati tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini aniqlash va ularni bartaraf etish borasida quyidagi ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan 2025 yil uchun taqdim etilgan **5 787 nafar** boshqaruv xodimlari barchasidan **(100%)** deklaratsiyalari qabul qilingan.

Komplaens xizmati ma’sullari tomonidan tahlil va o‘rganishlar olib borildi. Natijada, jami **67 ta** manfaatlar to‘qnashuvi holatlari, shundan, **13 ta** mavjud va **54 ta** ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari aniqlandi.

Aniqlangan barcha manfaatlar to‘qnashuvi holatlari bo‘yicha Komplaens xizmatining mas’ul xodimlari tomonidan tegishli Odob-axloq komissiyalariga belgilangan tartib va muddatlarda ko‘rib chiqilib, bartaraf etildi.

Komplaens xizmati tomonidan kelgusida yuqorida aniqlangan barcha holatlari yuzasidan monitoring va o‘rganishlar davom ettirilib, tegishli choralari ko‘rib borilishi ma’lum qilinadi.

Komplaens xizmati boshlig‘i



R. Avezov